

KONSEPT TUSHUNCHASI LINGVOKULTUROLOGIYA VA KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING TADQIQ OBYEKTI SIFATIDA

Z. Sayitkulova¹

Annotatsiya:

Mazkur maqolada, konsept tushunchasiga bo'lgan yondashuvlar, uning tilshunoslikdagi tutgan o'рни, tadqiqi, tilshunos olimlarining bildirilgan fikr va mulohazalari va ilmiy asoslangan nazariy qarashlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: konsept, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, tushuncha, leksik ma'no.

doi: <https://doi.org/10.2024/yccsnt95>

Hozirgi global zamonda antroposentrik paradigma tilshunoslik sohasining eng so'ngi yutuqlarini o'zida mujassam etib, mustaqil paradigma sifatida e'tirof etilmoqda. Zamonaviy yo'nalishlardan hisoblangan lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik antroposentrik paradigmanning yetakchi yo'nalishlaridir. Til, madaniyat, etnosning o'zaro munosabati masalasini XIX asrning boshlaridanoq nemis olimlari – aka-uka Grimmlar o'rganishga harakat qilganlari ma'lum. “Til – madaniyat” tushunchalarining uzviy aloqadorligi dastlab V. fon Gumboldtning ishlariga borib taqaladi [2]. Uning fikricha, til “xalqning ruhiyati”, xalqning “asl ko'rinishi”dir. Avvalo, madaniyat, tilda namoyon bo'ladi. Shunday ekan, til uning tashuvchisi hisoblanadi. Til madaniyatning asl ko'rinishi, realligidir, u orqaligina inson madaniyatga kirib boradi, kabi mulohazalari muhim ahamiyatga kasb etdi. Biroq lingvokulturologiyaning fan sifatida ilmiy asoslanishi A.A.Potebnya, G.V.Stepanov, D.S.Lixachev, M.M.Pokrovskiy, va Y.M.Lotman, va F.I.Busayevlarning ishlaridan boshlandi [3]. Kognitiv tilshunoslikning vujudga kelishi amerikalik olimlar J.Miller, J.Bruner, J.Lakoff, R.Langaker, R.Jakendoff va boshqalarning nomlari bilan bog'lanadi.

Konsept termini dastlab, fanda faqat falsafiy-matematik kategoriya sifatida faoliyat ko'rsatgan. XX asrning oxiridan hozirgi kunga qadar kontsept lingvokulturologiya, kognitiv lingvistika, falsafa kabi yetakchi yo'nalishlarning tadqiq obyektiga aylandi. Y.Stepanov kontseptuallashtirilgan sohani so'zlar, narsalar, mifologemalar va marosimlar umumiy tasvirga (madaniy tushuncha) birlashtirilgan madaniyat sohasi deb ataydi. Alohida “konseptuallashtirilgan makon” doirasida so'z va marosim ob'yekti, so'z va mifologema va hokazolar semantik jihatdan o'ziga xos tarzda birikishi, bir-birining o'rnini bosuvchi yoki timsol vazifasini o'taydi. Madaniyat sohasidagi bu kontseptualizatsiya jarayonini biz narsalar va so'zlarning sinonimizatsiyasi deb ataymiz [5]. Yana bir mashhur olim V.Z.Demyankov “Konsept” atamasining ma'nosi, etimologiyasi, turli tillardagi shakllari hamda ta'riflari haqida maqolalar e'lon qilgan. U o'zining “Термин «концепт» как элемент терминологической культуры” maqolasida “konsept” va “tushuncha” so'zlarini tarixiy dubletlar ekanligi, biroq, endilikda ilmiy va noilmiy foydalanishda ularning o'zaro farqlanishi haqida fikr-mulohazalarini bayon etish barobarida ularga shunday ta'rif beradi: “Konsept - og'zaki belgining mazmun tomoni, tushuncha esa voqelik. Ular inson hayotining aqliy, ma'naviy yoki hayotiy muhim moddiy sohasiga tegishli bo'lgan, odamlarning ijtimoiy tajribasi bilan rivojlangan va mustahkamlangan, ularning hayotida tarixiy ildizlarga ega bo'lgan, ijtimoiy va subyektiv ravishda tushunilgan jarayonlardir”. [3] O'zbek

¹ Sayitkulova Zilola Xusniddinovna, Doctoral Student, SamIFL

tilshunoslaridan N.Mahmudov, Sh.Safarov hamda A.E.Mamatov tomonidan konsept termiga batafsil izohlar berilgan [4]. Konseptni ko'p qirrali va ko'p qatlamli mental tuzilma sifatida bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etishini e'tirof etishimiz mumkin. Zero, konseptning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqotlar obyekt sifatida tavsiflanayotganligi ham shundan dalolat beradi. Shu sababli konseptning tadqiqotchilar tomonidan subyektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy konseptlar sifatida tiplarga ajratilganligini yagona mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifatida baholash mumkin. Zotan, til tizimi yuqoridagi sifatarni o'zida jamuljam etgan nihoyatda serqirra hodisalardan biri hisoblanadi [6]. Y.N. Shvedova konsept tushunchasi ortida ijtimoiy yoki subyektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi [7]. E.S.Kubryakova ta'kidlaganidek, "Konsept termini tafakkurni anglash, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash kabi muammolar bilan shug'ullanuvchi kognitiv psixologiya hamda kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya fanlari uchun soyabon vazifasini bajaradi". Kontseptlarni ideallashtirilgan kognitiv modellar, kognitiv metaforalar [4], tajriba va dunyo bilan o'zaro ta'sirni ifodalash uchun taklif qilingan ramkalar va skriptlar [14] sifatida tavsiflanishi mumkin. Konsept tafakkur birligi hisoblanib, uning asosida tushuncha, ma'no va obraz yotadi hamda u yuksak darajadagi mazmunga egadir.

Konsept doimo shaxs bilan bog'liq. Konsept o'z ichiga so'zning leksik ma'nosiga xos ravishda intellektual, hissiy, estetik axborotni qamrab oladi. Konseptning ma'no va tushunchadan farqini quyidagi talqinda ko'rish mumkin. Konsept - bu alohida bir xalq, ijtimoiy sinf, alohida maktab yoki aynan bir individning borliqdagi predmet yoki hodisaga bo'lgan qarashlari asosida yuzaga kelgan mental hodisadir [1]. Demak "leksik ma'no", "tushuncha" va "konsept" atamalarda bir-biridan farqlidir. Ular o'zaro bog'liq bo'lsada, ekvivalentlik xususiyatiga ega emas. Ularning fikrlashning o'xshash toifalariga mansubligi, ammo munosabatlarning turli tizimlarida qabul qilinganligi yaqqol seziladi. Konsept - bu tushunchaning tuzilishidagi bilish, ma'no va tushunishning o'zaro bog'liqligi nuqtai nazaridan qaraladigan psixik birlik. U inson ongida tushunchaning aksi sifatida, so'z ma'nosi bilan so'z ifodalagan tushuncha mazmunining yaqin o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladi. Qolaversa, konsept kognitiv ong mahsuli bo'lsa, so'zning leksik ma'nosi lisoniy ong mahsulidir. Uning mohiyati kengroq bo'lib, u o'zida faqatgina ma'no komponentlarini emas, inson hayotiy tajribasida orttirilgan bilimlari, ongdagi axborot yig'indisi, u yoki bu predmet yoki hodisa haqidagi ensiklopedik bilimlari majmuidan iborat. Xulosa sifatida konseptning oxirgi o'n yillik ichida tilshunoslikdagi eng faol qo'llanuvchi terminlardan biriga aylanganini e'tirof etish mumkin. Konsept nafaqat tilshunoslik, balki u adabiyotshunoslik, mantiq, falsafa va madaniyatshunoslik fanlarida ham qo'llanadi, biroq konsept termini hozirgacha aniq bir ta'rifga ega emas va turli sohalarda turlicha ta'riflanadi. Hozirgi kunga qadar turli olimlar tomonidan konsept tushunchasini talqin qilishda ayrim tafavvutlar mavjud. Lingvistik adabiyotlarda ular milliy mintallitetning asosiy birligi sifatida amaliy kundalik ko'p o'lchovli ta'lim mazmunidagi falsafiy termin sifatida o'rganilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1]. Болотов В.И. Из истории науки. А.А.Потебня и когнитивная лингвистика // Вопросы языкознания. - Москва, 2008. - №2. - С. 82.
- [2]. Гумбольдт В.Фон. Язык и философия культуры. - М., 1985. - С.451.
- [3]. Демьянков В.З. Термин «концепт» как элемент терминологической культуры // Язык как материя смысла: Сборник статей в честь академика Н.Ю.Шведовой / Отв. ред. М.В.Ляпон. - М.: Издательский центр «Азбуковник», 2007. (РАН: Институт русского языка им. В.В.Виноградова). С.606-622.

- [4]. Колесов В. В. Язык и ментальность. - СПб, 2004. С.19-20
- [5]. Сайидрахимова Н., Қобулова У. Лингвокультурология – тилшуносликнинг алоҳида соҳаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. – №4. – Б. 87-91. *International scientific and practical conference “Methodology of teaching foreign languages – innovations, traditions, problems and their solutions” March 15, 2024 46*
- [6]. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик – Жиззах: Сангзор, 2006; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилаётган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212; Маҳмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари ни излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти, 2012. № 5. – Б. 3-16.
- [7]. Степанов Ю.С. Константы. Словарь русской культуры: Опыт исследования. – М.: Яз. рус. культуры, 1997. – 824 с.
- [8]. Худайберганаева Д. Ўзбек тилидаги бадий матнларнинг антропоцентрик талқини: Филол. фан. док. ... диссер. автореф. – Тошкент, 2015. – Б. 11-12.
- [9]. Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С.603.
- [10]. Sayitqulova Z.X. Linguocultural features of wedding ceremonies in English and Uzbek literary works. *Asian Journal of Multidimensional Research ISSN: 2278-4853 Vol. 11, Issue 12, December 2022 SJIF 2022 = 8.179 A peer reviewed journal.*